



OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALAR INDIVIDUAL TA'LIMINI TASHKIL ETISH MUAMMOLARI

Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova

*Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim f
akulteti dotsenti v.b., p.f.f.d., (PhD)*

Annotatsiya. Ta'lim sifatini oshirish orqali mamalakatni dunyo hamjamiyatidagi mavqeini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalarni hal qilish imkoniyato ortadi. Oliy ta'lim tizimi talabalariga individual ta'lim olish imkoniyatini yaratish ularning mustaqillik, tashabbuskorlik va mas'uliyat kabi fazilatlarni shakllantirish, shuningdek, mustaqil ishlash, jamiyatda bo'layotgan voqealar haqida tanqidiy fikr yuritish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

Annatation. By improving the quality of education, the country's position in the world community and the ability to solve the problems of training competitive personnel will increase. Providing opportunities for higher education students to receive personalized education will help them develop the qualities of independence, initiative and responsibility, as well as the ability to work independently and think critically about what is happening in society.

Kalit so'zlar. Raqobatbardoshlik, individuallashtirish, ijodiy fikrlash, akademik erkinlik, qulay muhit, shaxsiy rivojlanish, shaxsiy ta'lim traektoriyasi

Keywords. Competitiveness, individualization, creative thinking, academic freedom, supportive environment, personal development, personal learning trajectory

Sotsiologik tadqiqotlarga ko'ra bugungi zamonaviy dunyoda insonlar tomonidan o'rganilishi zarur bo'lgan 100 dan ortiq yangi kasblar paydo bo'ldi. Vaqtlar kelib, kasblar sonining iqtisodiy faol aholi sonidan ortib ketishi ehtimoli insonlarning bir nechta kasblarni egallash zaruratini yuzaga keltirdi.

Tez o'zgarib borayotgan global dunyoda raqobatbardoshlikni saqlab qolish individual o'rganish ehtiyojlarini talab qiladi.

YUNESCO hamda Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT)ning "Hayot davomida o'qish" tamoyili insonlar tomonidan ilm olishning "beshikdan qabrgacha ilm izla" degan haqiqatga amal qilishning zarurligini amalda tasdiqlaydi.



Ta'limni individuallashtirishsiz oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish muhsil. Talabalarning o'quv jarayonini individuallashtirish oliy ta'limning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi

Songgi yillardagi o'tkazilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlar, jumladan, R.M. Asadullin, I.F. Berejnaya, V.P. Vdovina, E.P. Chernyaeva, A.V. Xutorskoy va boshqalarning olib brogan ilmiy tadqiqotlari natijalari tahlili yangi avlod standartlarini muvaffaqiyatli joriy etish talabalarning individual ta'lim traektoriyalarini loyihalash va amalga oshirish uchun sharoit yaratishni nazarda tutadi. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini individuallashtirish muammosi bir qator tadqiqotchilar tomonidan, jumladan, "individual ta'lim yo'nalishi" (ITY) – E.V.Goncharova va R.M.Chumicheva, T.A.Timoshina, N.A.Labunskaya, S.V.Vorobyova, M.A.Grinko, A.S.Gayazov, A.V.Turkina, V.I.Bogoslovskiy; "individual ta'lim dasturi" (ITD) – T.M.Kovaleva; "rivojlanishning individual traektoriyasi" (RIT) – S.M.Bochkareva; umumlashtirilgan ta'lim yo'nalishi (UTY) N.A.Labunskayalar tomonidan ko'rib chiqilgan.

“Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlari mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bunday imkoniyatlarni taqdim eta oladigan ta'lim individuallashtirilgan ta'lim deb ataladi”- deya ta'kidlaydi S.A.Matskevich.[1]

Tarixdan ma'lumki, pedagogikka fani taraqqiyotining antik (Suqrot, Platon) davridayoq o'qitishning individual shakli mavjud bo'lgan. O'rta asrlarda iqtisodiyotning o'sishi jamiyatning ta'limga bo'lgan ehtiyojining o'sishiga, o'qituvchilarning mehnat unumdorligini o'sirishga va yangi ta'lim texnologiyalarni qo'llashga olib keldi. "Buyuk didaktika"ning asoschisi Yan Amos Komenskiy 1649 - yilda darsni tashkil qilshning sinf-dars, ma'ruza-seminar (frontal) mashg'ulotlarini o'tkazish texnologiyasini batafsil tasvirlab bergan, Biroq, zamonaviy dunyoda inson hayotining barcha sohalarini keskin o'zgarishi, telekommunikatsiyalarning jadal rivojlanishi axborotlashtirilgan ta'lim tizimini joriy etish ehtiyojini yuzaga keltirdi.

Xozirgi kunda oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonini individuallashtirish muammosi dolzarbdir. U talabalarga akademik erkinliklarni taqdim etish va ularning har birini shaxsiy ta'lim traektoriyasi yaratish imkoniyatini yaratadi. (IOT). Talabalarning akademik erkinliklari – bu talabalarning o'qish darajasi, turi, muddati, usullarini erkin tanlash huquqlari, hamda, ishtirok etish imkoniyatidir [2]

Shaxsiy ta'lim traektoriyasini yaratish va amalga oshirish quyidagilarga imkon beradi: talabada aynan "bu erda va hozir"talabiga ega bo'lgan shaxsiy xususiyatlar



rivojlanadi. Bunga aynan. individual ta'lim trayektoriyalari yordam beradi. Talabaga shaxsiy o'quv ko'nikmalarini tahlil qilish, o'z bo'shliqlarini anglash va keyin ularni to'ldirish ustida ishlashga imkon beradi [3, 161-bet]. Boshqacha qilib aytganda, individual ta'lim traektoriyasini yaratish talabalarning o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash va mavjud muammoli vaziyatda ularni tuzatish usullari to'g'risida xabardor bo'lishlariga olib keladi.

Talabaga yo'naltirilgan ta'lim – talabaning tafakkuri va xulq-atvorini hisobga olgan holda shaxsi, xususiyatlari va qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'limdir. Bu shuni anglatadiki, o'quv muhiti talabaning imkoniyatlariga moslashtirilgan. Bu ta'lim muhitini, pedagogik shart-sharoitlarni, talabaning shaxsiy imkoniyatlarini o'quv jarayonini to'liq ro'yobga chiqarishni, uning qobiliyatlarini rivojlantirishni, shaxsini boyitishini, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishini ta'minlaydi.

Individual ta'limning o'ziga xos xususiyati shundaki, talaba o'z individualligini anglab yetishi va uning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishi muhimdir. Ta'limning bu turi talabalarda mustaqillik, tashabbuskorlik va mas'uliyat kabi fazilatlarni shakllantirish, shuningdek, mustaqil ishlash, jamiyatda bo'layotgan voqealar haqida tanqidiy fikr yuritish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

Bunday ta'limni ta'minlash o'qituvchilardan har bir talabaga imkon qadar individual munosabatda bo'lishni va uning shaxsiyatini hurmat qilishni talab qiladi. Bundan tashqari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni ishtirokchilari “o'qituvchi-shogird” yoki “talaba-talaba” yoki “talabaga yo'naltirilgan muhit” ta'lim muhitini va shaxsiy rivojlanish uchun qulay ta'lim muhitini yaratishi zarur [4]

Globalashuv sharoitida shaxsni har tomonlama kamol toptirishda, kasb egasi sifatlarini shakllantirishda ta'lim muhim o'rin tutadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan bosqich talabalarga eng qisqa vaqt ichida kerakli ma'lumotlar va turli fanlarni o'zlashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Individual ta'lim sharoitida pedagoglar quyidagilarga amal qilishlari maqsadga muvofiq:

- har bir talabaga shaxs sifatida qarash;
- talabani hurmat qilish;
- talabaning ruhiy holatini to'g'ri baholay olish;
- talabaning istak va manfaatlarini hisobga olish;
- har bir talabaga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lish;
- talabaning kuchi, qobiliyati va intilishlariga ishonch bildirish;
- talabalarni o'z faoliyatini mustaqil nazorat qilishga, faoliyati samaradorligini aniqlashga, muvaffaqiyat omillari va xatolar oqibatlarini tahlil qilishga o'rgatish;



- har bir talabaga o‘rganish va muvaffaqiyatga erishishga yordam berish;
 - talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning shaxsiy rivojlanishiga yordam berish;
 - pedagoglar singari, har bir talaba ham hurmat va ishonchni qozonishi kerak.
- Oliy ta’limda yangi ta’lim texnologiyalarini joriy etish quyidagi hollarda samarali hisoblanadi:
- o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish, yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi o‘quv materiallarini yaratish, shuningdek, talabalarga mavjud o‘quv materiallaridan foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratish orqali ta’lim sifatini oshirish. Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini yaratish;
 - o‘quv jarayoni davomida pedagoglarga tushadigan yuklamani kamaytirish va darsdan tashqari o‘quv materiallarini nashr etish va yangilash yukini oshirish orqali professor-o‘qituvchilar tarkibini optimallashtirish;
 - mahalliy va xalqaro ta’lim xizmatlari bozori miqiyosida oliy ta’lim muassasalarining maqomini va raqobatbardoshligini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мацкевич, С. А. Методологические и научные подход к управлению качеством образования / С. А. Муравьева // Кіраванне ў адукацыі. – № 5. – 2004.
2. Gaynazarova, G. A. Actual Problems of Continuous Qualification Improving of Preschool Educational Institution Tutors. Eastern European Scientific Journal. Ausgabe, ISSN, 21997977, 104-109.
3. Gaynazarova, G. A. (2023). Causes and Pathology of lefthandedness. Eurasian Scientific Herald, 20, 49-51.
4. Gaynazarova, G. (2022). Social adaptation and its pedagogical factors (on the example of girls). Science and Innovation, 1(8), 2160-2164.
5. Gaynazarova, G. A., & Shonasirova, Z. Y. D. (2023). МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТИЗИМИГА HORIJIY TAJRIBALARNI QO ‘LLASHNING ZARURATI. Science and innovation, 2(Special Issue 5), 721-724.
6. Abdullayevna, G. G., & Kamaldinovna, B. M. (2022). WAYS OF FORMATION OF TECHNOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS.
7. Gaynazarova, G. A. (2020). A model for improving the professional competence of teachers and preschool educators in the process of professional development



and the essence of its main components. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(S6), 672-678.

8. Гайназарова, Г. А. (2020). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ ПЕДАГОГ-ТАРБИЯЧИЛАРИНИНГ КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ОШИРИШ ДОЛЗАРБ МУАММО СИФАТИДА. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 3).
9. Abdullayevna, G. G. (2019). ANALYSIS OF THE RESULTS OF EXPERIMENTAL WORK ON IMPROVEMENT OF PROFESSIONAL SKILLS OF PRESCHOOL TEACHERS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
10. Гайназарова, Г. А. (2017). Мактабгача таълим муассасаси тарбиячиларида педагогик маҳоратни шакллантиришнинг ўзига хос жиҳатлари. Современное образование (Узбекистан), (10), 47-53.